
MATBUOT ANJUMANI O'TKAZILDI

Buvayda tuman hokimligi kichik majlislar zalida tuman hokimi ishtirokida "Buvayda tumanida aholini ko'p qavatli uylarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar tahlili" mavzuidagi matbuot anjumani o'tkazildi.

Matbuot anjumanida Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimov, qurilish korxonasi tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Buvayda tumanida 2021-2023 yillar davomida aholini ko'p qavatli uylarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan tumanda 14 ta ko'p qavatli uylar qurilgan. Ularda zamonaviy barcha qulayliklarga ega bo'lgan 506 ta xonadon joylashgan.

O'sib kelayotgan tuman aholisining ko'p qavatli uylarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida joriy yilda ham 4 ta ko'p qavatli uylar qurilmoqda. Bunday bunyodkorlik ishlari tufayli zamonaviy, barcha qulayliklarga ega jami 308 ta xonadon barpo etilishi rejalashtirilgan.

Matbuot anjumani davomida jurnalist hamda blogerlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar

2024-06-26 18:51:19